

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARNING MAKTAB SHAROITIGA MOSLASHISHI

Feruza Urakova Botirjonovna
Qo‘qon davlat pedagogika instituti
Xorijiy tillar fakulteti 1-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada kichik maktab yoshidagi bolalarning xulq-atvori va maktab sharoitiga moslashishi va psixologik qiyinchiliklarini yuzaga kelishi, hamda o‘quv jarayonlariga bo‘lgan qiziqishini orttirish borasida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: maktabgacha bo‘lgan yosh davri, o‘quvchilar, o‘qituvchilar, aqliy rivojlanish, psixik faollik, qiziqish.

ADAPTATION OF CHILDREN OF SMALL SCHOOL AGE TO THE SCHOOL ENVIRONMENT.

Feruza Urakova Botirjonovna
Kokan State Pedagogical Institute
1st year student of the Faculty of Foreign Languages

ANNOTATION

This article discusses the behavior of children of primary school age and their adaptation to school conditions, the occurrence of psychological difficulties, and the development of their interest in educational processes.

Key words: preschool age, students, teachers, mental development, mental activity, interest.

Kirish:

Bog‘cha yoshidagi bolalik davri tugagandan so‘ng, kichik maktab yosh davri bolalarda boshlanadi. Bolalarning kichik maktab yoshidagi davri 6-7 yoshidan 9-10 yoshgacha hisoblanadi va bu yillar oralig‘i boshlang‘ich sinflarda o‘qishi yillariga to‘g‘ri keladi. Bola birinchi bor maktab ostonasiga qadam qo‘yishi, unda o‘quv jarayoni boshlanishi hisoblanadi. Bola maktabga borishi mobaynida bir qancha psixik o‘zgarishlar va qiyinchiliklar yuzaga keladi. Bola ilk bor maktabga borganda maktab talablarini va qoidalalarini bajarishga va ta’lim olishga ham jismoniy ham psixologik jihatdan tayyor bo‘ladi. Kichik maktab Yoshidagi bolaning muhim xususiyatlaridan

biri, unda o‘ziga xos ehtiyojlarning mavjudligidir. Bu ehtiyojlar o‘z mohiyatiga ko‘ra faqat muayyan bilim, ko‘nikma va malakalarni egallahsga qaratilmay, balki o‘quvchilik istaklarini qondirishdan iboratdir.

Shu ehtiyojlar asosida bolaning o‘z portfelia, shaxsiy o‘quv qurollariga, dars tayyorlash stoliga, kitob qo‘yish javoniga ega bo‘lish, kattalardek har kuni maktabga borish istagi yotadi. Ana shu ehtiyoj bola shaxsining shakllanishida, shuningdek uning ijtimoiylashuvida katta ahamiyatga ega hisoblanadi.

Kichik maktab yosh davridagi bolalar biologik va psixologik jihatdan tayyor bo‘ladi. Olimlarning fikriga ko‘ra, bola 7 yoshga to‘lganda katta miya yarim shari ma’lum darajada rivojlangan bo‘ladi. Lekin bu yoshda inson miyasining psixik faoliyatni rejalashtirish, boshqarish, nazorat qilish kabi murakkab shakllariga javob beradigan maxsus bo‘limlari hali to‘liq shakllanib bo‘lmagan bo‘ladi. (miyaning bu qismlari 12 Yoshda rivojlanib bo‘ladi.) Miyaning boshqaruv funksiyalarini to‘liq shakllanib bo‘lmaganligi kichik maktab yoshidagi bolalarning xulq-atvorida, faoliyatlarini tashkil etishlarida va emotsiyalarda yaqqol namoyon bo‘ladi.

Kichik maktab o‘quvchilarining ixtiyorsiz diqqat yuqori turadi. Bola diqqatining xususiyatlari sujetli va rolli o‘yinlarda, rasm chizishga ishtiyobi katta bo‘ladi. V Lekin bu davrda bolalarning idrokining o‘tkirligi, ravshanligi, aniqliligi, sofligi, o‘zining qiziquvchanligi, xotirasining kuchliligi, tafakkurining yaqqolligi, ishonuvchanligi bilan boshqa yosh davrdagilardan ajralib turadi. Bola o‘z diqqatini muayyan obyektga yo‘naltirish, to‘lash, taqsimlash bo‘yicha ma’lum darajada ko‘nikmaga ega bo‘lib, o‘z diqqatini boshqarish va kerakli paytda to‘plashga intiladi. Uning xotirasi qiziqarli, o‘zgacha ma’lumot va hodisalarni puxta esda olib qolish, esda saqlash va hodisalarni esga tushurish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Har bir bolaning o‘sib-ulg‘ayish davri turlicha kechadi. Shuning uchun bola psixologik tomonlama ham tayyor bo‘lishi lozim. Chunki bog‘cha davrida bolalar faqatgina o‘yin-kulgi bilan vaqt o‘tkazgan va hamma vaqtini o‘zi hohlangan ishlarni qilish bilan band bo‘lgan, shu sababli bola maktabga moslashishi uchun bir qancha qiyinchiliklarga duch kelish mumkin. Bola maktabning qonun-qoidalariga majburlash oson kechmaydi. Bola maktabga borishdan oldin ham jismonan, ham aqlan rivojlanishi lozim. 6-7 yoshli bolaning ohirgi oyiga 150-200 gramgacha, bo‘yi esa 0,5 yoki 1 santimetrgacha o‘ssa boshlaydi. Bu davr mobaynida bolaning eshitishi, ko‘rishi, umurtqa pog‘onasini to‘g‘ri tuta olishiga e’tibor berish kerak.

Kichik maktab yoshidagi bolalarning qiziqishi yuqori darajada bo‘ladi. Hozirgi kunda boshlang‘ich maktab ta’limini integratsiya qilish haqida ko‘p gapirilayapti. Kichik maktab o‘quvchisi atrofidagi olamni bir butunligicha qabul qiladi. Uning uchun tabiatshunoslik, rus tili, musiqa va boshqa o‘quv fanlari nomi emas, balki atrofidagi olam obyektlarining tovushlar, ranglar, hajmlarning turli-tumanligi qiziqarlidir.

Bolalarning tabiat va kundalik hayotdagi barcha narsalarning bog‘liqligini ko‘rishga o‘rgatish kerakligini o‘qituvchi sezadi va biladi. Lekin ayrim bolalarda qo‘rquv hissi yuzaga keladi va o‘zini qiziqtirgan savollarni yoki dars mobaynida qatnashishga qo‘rqadi. Bolada xato gapirsam o‘qituvchi urishadi degan hayollar bo‘ladi. Shularni bartaraf etish uchun o‘qituvchi o‘quvchilar bilan do‘stona suhbatlashishi kerak. O‘qituvchi o‘quvchilar bilan mazmunli suhbatlar o‘tkazishi, ularni g‘aroyibotlar olamiga olib kirishi, faollik sari yetaklashi alohida ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bugungi kunda yosh avlod yetuk, ahloqli, bilimli shaxs bo‘lib kamol toptirish muhim vazifadir. Bu davrda maktab sharoitiga moslashtirish uchun o‘quvchilarga ishonch bildirish lozim. Hamda o‘qituvchi o‘quvchilar bilan mazmunli suhbatlar o‘tkazishi, ularni faollik sari yetaklashi alohida ahamiyat kasb etadi. Ayrim 6-7 yoshdagi bolalarning darga qiziqishi yo‘q bo‘ladi. Bilamizki barcha bolalar o‘yinlarga qiziqadilar, shuning uchun o‘qituvchi darsga qiziqtirish uchun turli hil ko‘rgazmali qurollardan, qiziqarli savol-javoblar o‘tkazishi va darsga doir o‘yinlar tashkillashi lozim.

Bolaning maktabda a’lo o‘qishi nafaqat uning aqliy va jismonly tayyorgarligi, balki shaxsiy va ijtimoiy psixologik tayyogarligiga ham bog‘liqdir.

Maktabga o‘qish uchun kelayotgan bola yangi ijtimoiy mavqeini-turli majburiyatları va huquqlari bo‘lgan va unga turli talablar quyiladigan o‘quvchi mavqeini olish uchun tayyor bo‘lmog‘i lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1) 1.g‘oziyev E. Psixologiya (Yosh davri psixologiyasi). T.:2002
- 2) Nazarova, M. (2021). BOSHLANG ICH TA ‘LIM O QUVCHILARINING PSIXIK TARAQQIYOTIDA INTEGRATSIVAVIY-INNOVATSION YONDASHUVLAR AHAMIYATI. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. Uz), 7(7).
- 3) Khaitov , Bekzod Shukhratovich , and Nargiza Muzaffarovna Babaeva . "Problematic situations in higher authority administration and ways to improve of dealing with them." *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal* 11.4 (2021): 974-977. Khaitov, BS (2022). METHODS FOR IMPROVING THE INFORMATION AND COMMUNICATION COMPETENCE OF THE HEAD OF A GENERAL EDUCATION INSTITUTION DURING THE EDUCATIONAL PROCESS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* , 10 (12), 928-931.
- 4) Khaitov , Bekzod Shukhratovich . "METHODS FOR IMPROVING THE INFORMATION AND COMMUNICATION COMPETENCE OF THE HEAD OF A

GENERAL EDUCATION INSTITUTION DURING THE EDUCATIONAL PROCESS." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 10.12 (2022): 928-931.

5) Shukhratovich, Khaitov Bekhzod. "Innovative Methods of Developing Communicative Competence of the Head of Educational Institution." *American Journal of Social and Humanitarian Research* 3.5 (2022): 196-202. Khaitov BS IMPROVING THE SYSTEM OF WORK WITH PARENTS OF SCHOOLCHILDREN IN THE ACTIVITIES OF DIRECTORS OF GENERAL EDUCATION SCHOOLS //*Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*. - 2023. - T. 11. - no. 1. - S. 396-400.

6) Khaitov bekhzod Shukhratovich "Innovative methods for the development of communicative competence of the head of an educational institution" isn: 2690-9626v.3, No. 5, 2022

7) Haitov, Bekzod. "Methods of Improving Communicative Competence of the Head of Educational Institution." *scienceweb academic papers collection* (2022).